

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI**

Tursunova Zarina Ne‘matovna
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinmg o‘qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish masalalari haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *metodika, adabiyot, tajriba, mustaqil ishlar, o‘qituvchi, o‘quvchi, maqsad, ibora.*

**MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR
ACTIVITIES IN PRIMARY CLASSES**

Abstract: *The article discusses the issues of organizing extracurricular activities in reading lessons of primary schoolchildren.*

Key words: *methodology, literature, experience, independent work, teacher, student, goal, phrase.*

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, xususan, milliy istiqlol g‘oyalarining hayotimizga tobora chuqur ildiz otib borishi ta‘lim tizimidagi islohotlarning ham mazmunini boyitmoqda. Ta‘lim jarayonida o‘qitishning tajribada sinovlardan o‘tgan shakl va usullari boyitilib, zarurat bo‘lganda, yangilanib amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu boradagi davlat siyosati ham uzluksiz ta‘lim vositasida ma‘naviy - axloqiy jihatdan tarbiyalangan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Uning nechog‘li to‘g‘ri amalga oshirilishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich ta‘lim tizimining samaradorligiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning eng muhim bo‘g‘inidir. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida“gi Nizomda ta‘kidlanganidek:

“Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta‘minlashga da‘vat etilgan.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishga kichik yoshdagi o‘quvchilarni ona tilini puxta o‘zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta‘lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi - kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi: 1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. 2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar- tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona - Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi. 3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari yosh avlod qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otish, matn mazmunini qayta hikoyalash, ma'lum reja asosida qisqartirib yoki shaxsini o'zgartirib hikoyalash, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, asar qahramonlarining fe'l-atvorini, xatti-harakatini baholash orqali ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, qisqa qilib aytganda, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishda katta imkoniyatlarga ega.

Sinfdan va sinfdan tashqari o'qish boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida grammatika va

to'g'ri yozuv, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, musiqani o'rganishda olingan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar o'qish darslaridan o'qish darslarida foydalaniladi. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi.

Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nitqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi.

Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek qahramonlar harakatini to'g'ri bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo'min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi.

So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy sovrining yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta xalq og'zaki ijodini yaqindan o'qishi lozim. Ertaklar- yaxshilikka yetaklar deganlariday o'quvchi ettaklar bilan tanishar ekan mard, jasur vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi.

Komil insonni tarbiyalashda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy g'oyalarining asoslash, sharhlash hamda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qiluvchi samarali shakl, metod va vositalarning aniqlanganligi, shuningdek, komil insonni tarbiyalashda tarbiyaviy ishlarning amalga oshirish texnologiyasining ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, xalq ta'limi sohasiga oid rasmiy hujjatlar Prezidentimizning "Barkomol avlod" to'g'risidagi ilmiy nazariy ta'limotlari. Sharq mutafakkirlari asarlari shuningdek pedagogika nazaryasi rivojlanishida faoliyat

ko'rsatayotgan O'zbekiston olimlari va pedagoglari N.Azizxodjayeva, M.Inomova, O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Ochil, I.Saidahmedov, N.Ortiqov, A.R.Xodjaboyev va boshqalarning ilmiy g'oyalaridan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quv-chilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o.,quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o.,quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbus-korligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining o.,ziga xosligi shundaki, to.,garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatleri jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do.,stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini, e'tiborini o'rganishi kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o.,quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko.,maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilarning barchasida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi, o'qilgan asarni tushunishga o'rgatadi, ularning so'z boyligini oshirib, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish darslarida ayrim qiyin so'zlar tushintiriladi, o'quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne'matovna, T.Z. (2024). DEVELOPMENT OF STUDENTS' LINGUISTIC COMPETENCIES IN "MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY" LESSONS OF THE 3rd GRADE. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 114-118.
2. Ne'matovna, T. Z. (2024). FORMATION OF MOTHER LANGUAGE COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 453-461.
3. NE'MATOVNA, T. Z. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1),

207-212.

4. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(10), 777-779.

5. Ne'matovna, T. Z. (2023). Boshlang'ich Sinflarda Ot So'z Turkumini Izchillikda O'rgatish Metodikasi. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 389-391.

6. Ne'matovna, T. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SIFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI.

7. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 350-352.

8. Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 324-331

9. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.

10. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.

11. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.

12. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.

13. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.

14. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of " Education" in Primary Grades. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 369-372.

15. Ne'matovna, T. Z. (2024). FORMATION OF MOTHER LANGUAGE COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 453-461.

16. Баратов, Ш. Р. (2013). Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования. *Вестник интегративной психологии*, 48-49.

17. Баратов, Ш. Р., Баратова, Д. Ш., & Усманова, М. Н. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике.

18. Баратов, Ш. Р. (1998). *Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане* (Doctoral dissertation, Автореф. дис.... докт. психол. наук).
19. Баратов, Ш. Р. (2023, December). НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *The Role of Technical Sciences in IV Industrial Civilization: International Scientific and Practical Conference (UK)* (Vol. 4, pp. 46-53).
20. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
21. Rustamovna, N. S. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 378-382.
22. Rustamovna, N. S. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 127-131.
- Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
23. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). Empatiyani tushunish, inson aloqasining asosiy komponenti. *American Journal Xalq diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar (2993-2157)*, 1(10), 378-382.
24. Narziyeva, S. (2023). Kasb tanlov haqida psixologik qarashlar. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2(10), 333-336.
25. Касимова, С. Б. (2022). Развитие персональной компетентности руководителя в управлении дошкольным образовательным учреждением. *Science and Education*, 3(4), 1379-1383.
26. Saburovna, S. M. (2022). Ta'limni Modernizatsiyalash Sharoitida Pedagog Professionalizmini Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 30, 362-366.
27. Sarvinoz, Q. (2022). Emotional understanding of individuals the role of emotions. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(1), 12-18.
28. Qosimova, S. B. (2021). O'smirlik davridagi o'quvchilarda ijtimoiy intellekt muammosining psixologik xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 554-559.
29. Baxtiyorovna, Q. S. (2020). Heads Of Competence In Psychologically School Education. *International journal of scientific & technology research*, 9(02).
30. Касимова, С. Б. (2022). Развитие персональной компетентности руководителя в управлении дошкольным образовательным учреждением. *Science and Education*, 3(4), 1379-1383.
31. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 88-94.
32. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary

education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 453-460.

33. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 445-452.

34. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.

35. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.

36. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). МАКТАБГА ТАЙЙОРЛОВ ГУРУHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A'HARF-TOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41).

37. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 429-435.

38. Tajiddinovna, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 469-475.

39. Сабирова, Д. А. (2017). МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА УЧИТЕЛЯ. In *Психология XXI столетия* (pp. 345-349).

40. Сабирова, Д. А. (2016). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА. *ЧФ: СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ*, 182.

41. Сабирова, Д. А. (2016). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*, 394.

42. Сабирова, Д. А. (2014). СОЦИАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ОБЩИЕ МОМЕНТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЙ. *Человеческий фактор: Социальный психолог*, (1), 42-45.

43. СОБИРОВА, Д. А. ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИДА СОЦИАЛ-ПСИХОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИК ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ ВА ПСИХОКОРРЕКЦИЯСИ. *PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет*, (1), 117-121.

44. СОБИРОВА, Д. А. ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИДА ИЖТИМОЙ КОМПЕТЕНЦИЯ ОМИЛЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет*, (4), 22-27.

45. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.

46. Kozimova, N. A. (2024). ОТА-ОНАЛИК PSIXOLOGIYASI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 119-125.

47. Kozimova, N. A. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL TENSION IN ADAPTATION TO STUDY ACTIVITY OF FIRST LEVEL STUDENTS. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 311-317.
48. Kozimova, N. A. (2024). Psychological aspects of emotional stress in adaptation to educational activities. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 136-140.
49. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. Journal of Universal Science Research, 1(8), 131-139.
50. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. Gospodarka i Innowacje., 28, 6-11.
51. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo 'llash metodlari. Journal of Universal Science Research, 1(9), 223-234.
52. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
53. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 116-122.